

ALPOMISH VA KUNTUG’MISH DOSTONLARI ASOSIDA KOMPLEKS ETNOTURIZM MAHSULOTINI YARATISH HAMDA UNI XALQARO BOZORGA EKSPORT QILISHNING NAZARIY TAHLILI

TILOVMURODOV SHOHJAHON

TDSHU, TURIZM VA MEHMONDO’STLIK

YO’NALISHI MAGISTR 1-BOSQICH

EMAIL: shohjahontilovmurodov38@gmail.com

Abstarct: This study provides an in-depth analysis of the **theoretical, institutional, and economic mechanisms** for developing a **comprehensive ethnographic tourism product based on epic narratives** and exporting it to the international market.

Key words: Ethnotourism; Folklore tourism; Epic-based tourism; Export analysis; Ethnotourism product.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda dostonlar asosida kompleks etnoturizm mahsulotini shakllantirish va xalqaro bozorga eksport qilishning nazariy, institutsional va iqtisodiy mexanizimlari chuqur tahlil qilindi.

Kalit so’zlar: etnoturizm, folklor-turizm, epic-turizm, eksport tahlili, etnoturizm mahsuloti

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Globallashuv va madaniy unifikatsiya jarayonlari kuchaygan sharoitda milliy nomoddiy merosni saqlash bilan birga uni yuqori qo’shilgan qiymatli xizmat va kreativ mahsulotga aylantirish zaruratidan kelib chiqadi. Ishning maqsadi epik merosni tajriba iqtisodiyoti konsepsiyasi asosida innovatsiyon turistik mahsulotga transformatsiya qilish, uning eksport salohiyati inbound va outbound modellari orqali iqtisodiy jihatdan asoslash hamda barqaror rivojlanish omillarini aniqlashdan iborat. Hozirgi kunda turizm sohasi nomoddiy madaniy merosni iqtisodiy resursga aylantirishning samarali vositasi sifatida nomoyon bo’lmoqda.

O’zbekiston boy folklor va epik an’analarga ega mamlakat bo’lib, dostonchilik maktabi xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlarini va estetik tafakkurini mujassamlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, Alpomish va Kuntug’mish dostonlari asosida kompleks etnoturizm mahsuloti yaratish nafaqat madaniy, balki iqtisodiy jihatdan ham istiqbolli yo’nalish hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida kontent-tahlili, tizimli yondoshuv, iqtisodiy modellashtirish va prognozlash, shuningdek xalqaro tajriba bilan komparativ tahlil usullari qo’llanildi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki “Alpomish” dostonidagi qahramonlik, ot madaniyati, jang sahnalari, baxshichilik va jamoviy marosimlar, rekonstruksiya va

performative turizm uchun mustahkam kontent bazasini yaratdi. “Kuntug’mish” dostonidagi muhabbat motivi, to’y marosimlari, milliy kiyim va zargarlik elementlari esa romantik-etnografik va sahnalshtirilgan turizm formatiga mos keladi. Ushbu ikki syujet yo’nalishining sintezi mahsulotni tematik diversifikatsiya qilish mkonini beradi: qahramonlik-sarguzasht(adventure heritage) va romantik-marosim (ceremonial heritage) segmentlari parallel rivojlantiriladi, bu esa maqsadli auditoryani kengaytiradi.



1-rasm (Alpomish dostonidan-“Jang sahnasi”) ¹



2-rasm (Kuntugmish-“Muhabbat motivi”)aks etgan rasm

Ushbu maqolada taklif etilayotgan kompleks mahsulot besh integratsiyalashgan blokdan iborat.


1. Tematik etnohudud,
2. Yillik xalqaro festival
3. VR/AR asosidagi immersive kontent
4. Ta’limiy folklor moduli
5. Kreativ industriya mahsulotlari

¹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/alpomishdan-aytavinmiyoronlar.html>

Qo'shimcha ravishda, mahsulotning barqarorligini ta'minlash uchun B2B hamkorlik platformasi, xalqaro turoperatorlar bilan Klaster modeli va davlat-xususiy sheriklik mexanizmi joriy etiladi. Klaster yondashuvi hunarmandlar, san'atkorlar, texnologiya kompanyalari va turizm operatorlarini yagona qiymat zanjiriga birlashtiradi, bu esa qo'shilgan qiymatni oshiradi

Mahsulotning eksport salohiyati ikki yo'nalishda modellashtiriladi. **Inbound eksport** modeli hududda sarflangan mablag'lar asosida aniqlanadi va ushbu formulada ifodalanadi: $ER_{in} = N * S * L * K$. Izoh (Buyerda N -xorijiy turistlar soni, S -bir kunlik o'rtacha xarajat, L -o'rtacha yashash muddati, K -mahsulotga yo'naltirilgan ulush ko'effitsenti.)²

Ikkinchi model-**Outbound eksport** modeli bo'lib ushbu model mahsulotning o'zini tashqi bozorga chiqarishga asoslanadi va quydagi formula asosida ifodalanadi $ER_{out} = (F * P_f) + (L * P_L) = (D * P_d)$. Izoh ($F * P_f$ -xalqaro shou yoki festival segmentidan tushum, F -yil davomida xorijda o'tkazilgan festival yoki shoular soni, P_f -har bir festivaldan olingan sof daromad, $L * P_L$ -litsenziya va intellektual kontent segmentidan tushum, L -litsenziyalar soni, P_L -bitta litsenziyadan olingan daromad, $D * P_d$ -mahsulotlar va segmentidan tushum, D -xorijiy bozorda sotilgan mahsulot yoki suvenir birliklari soni, P_d -bir birlik mahsulotdan olingan sof foyda)³

3-RASM⁴

Institutsional jihatdan lohiya muvaffaqiyati normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, intellektual mulkni himoya qilish, xalqaro sertifikatlash va brendlash strategiyasini ishlab chiqish bilan bog'liq "Epic Uzbekistan" kabi umbrella-brend

² <https://orcid.org/0000-0002-1966-9287> Akmal Baxromov –O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI EKSPORTINING HOZIRGI HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI: STATISTIK TAHLIL ASOSIDA YONDASHUV

³ Göçer, İ., & Bulut, Ş. (2020). Tourism exports and economic growth: An analysis of developing countries. Journal of Tourism and Services, 11(20), 45–60.

⁴ MUALLIF ISHLANMASI FORMULA ASOSIDA

ostida mahsulotni global bozorda pozitsiyalash marketing samaradorligii oshiradi. Raqamli marketing, storytelling, xalqaro turizm yarmarkalari va diaspora tarmoqlari eksport geografiyasini kengaytiruvchi vositalar sifatida xizmat qiladi.⁵

Shuningdek O'zbekiston sharoitida turizm xizmatlari eksportini tahlil qilingan ilmiy maqolalarda xizmatlar eksportining eng muhim yo'nalishlari, statistik asoslari, mintaqaviy yo'nalishlari, va istiqbollari o'rganilgan.⁶ Ushbu maqolada aynan folklor-turizm hamda epic turizmni birlashtirib yagona etnoturizm mahsuloti eksportini oshirish uchun infratuzlma, raqamli marketing va hududiy diversifikatsiya tavsiya qilingan, yani milliy mahsulotlarni global bozorga chiqarishning samaradorlik omillari tahlil qilingan.

Xulosa: Shu tariqa, Alpomish va Kuntug'mish dostonlari asosida yaratilgan kompleks etnoturizm mahsuloti nafaqat milliy madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishga xizmat qiladi, balki iqtisodiy jihatdan yuqori qo'shilgan qiymatli, barqaror va eksportbop mahsulot sifatida xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mahsulotning inbound modeli xorijiy turistlar orqali xizmatlar eksportini, outbound modeli esa intellektual va kreativ kontent hamda mahsulot realizatsiyasini rivojlantirish orqali qo'shimcha daromad hosil qiladi.

Iqtisodiy modellashtirish va prognoz natijalari mahsulotning yillik eksport tushumi va rentabellik ko'rsatkichlarining sezilarli darajada ijobiy ekanligini, investitsiya qisqa muddatda o'zini oqlashini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, institutsional chora-tadbirlar – brendlash, litsenziyalash, klaster yondashuvi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari – loyihaning muvaffaqiyatini va barqarorligini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, ushbu mahsulot O'zbekistonning milliy brendini global bozorda pozitsiyalash, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va hududiy iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashga xizmat qiladi. Mahsulot orqali madaniy diplomatiya salohiyati ham oshadi, chunki dostonlar orqali milliy qadriyat va an'analarning xalqaro auditoriyaga taqdim etilishi madaniy almashinuv va ijobiy imidj yaratadi.

Umumiy holda, Alpomish va Kuntug'mish dostonlari asosidagi etnoturizm mahsulotini yaratish va uni eksport qilish O'zbekistonning global madaniy-iqtisodiy makondagi raqobatbardoshligini oshirish, hududiy bandlikni kuchaytirish, hunarmandchilik va kreativ industriyani rivojlantirish, shuningdek, milliy brend kapitalini mustahkamlashning innovatsion strategik yo'nalishi sifatida baholanishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu model kelajakda VR/AR texnologiyalari, raqamli

⁵ <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/turizm-xizmatlarini-litsenziyalashtirish-sertifikatlashtirish-va-standartlashtirish> TURIZM XIZMATLARINI STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH 2023-YIL 31-YANVAR

⁶ Raximova, U. Z. (2024). Turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. Iqtisodiyot va turizm, 1, 136–142.

marketing va xalqaro hamkorlik orqali yanada kengaytirilib, yangi bozorlarga chiqish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akmal Baxromov -O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI EKSPORTINING HOZIRGI HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI: STATISTIK TAHLIL ASOSIDA YONDASHUV
2. Göçer, İ., & Bulut, Ş. (2020). Tourism exports and economic growth: An analysis of developing countries. *Journal of Tourism and Services*, 11(20), 45–60.
3. TURIZM XIZMATLARINI STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH 2023-YIL 31-YANVAR
4. Raximova, U. Z. (2024). Turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. *Iqtisodiyot va turizm*, 1, 136–142.

Web sahifalar

5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/alpomishdan-aytayinmiyoronlar.html>
6. <https://kitobxon.com/oz/kitob/kuntugmish-doston-halq-ogzaki-ijodi>
7. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/turizm-xizmatlarini-litsenziyalashtirish-sertifikatlashtirish-va-standartlashtiris>